



ULUG'BEK HAMDAMNING "OTA" ROMANIDA ONA (AYOL) OBRAZI

Olimjonova Sarvinoz Maxmudjon qizi
*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o'zbek tili va adabiyoti universiteti magistranti*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Ulug'bek Hamdamning o'zbek xalqining turli xil aholi qatlamida hayot mashaqqatlari, uning past-balandliklariga bardosh bera olishi, davrning injiqliklari va millatning mazkur umr sinovlarini yengib o'tishda yor (ayol) obrazi haqida yozilgan. Shuningdek, maqolada ayollarning turlicha ijtimoiy kelib chiqishi nuqtai nazaridan qaralganda barchasi bir maqsad yo'lida, ya'ni oila farovonligi muvozanatini saqlashga umrlarini sarflashi to'g'risida bayon qilingan.

Kalit so'zlar: ayol, yor, oila, shahar, qishloq, muvozanat, bola, qarindosh, savdogar, o'qituvchi, bozor, tog', doktor, bog', ishxona, dars, mashina.

***Mening otam oq terak
Mening onam- majnuntol***

Adabiyot inson va uning qalbini o'rganuvchi fandır. Aytish mumkinki, adabiyotda turli mavzu va qarashlar ko'p, ammo ularning asl mohiyatini qarajak, barchasi ayol va uning tevaragida aylanadi. "To'g'ri" so'z san'atida Vatanga, muhabbat, tabiat, halollik... kabi o'nglab mavzular bor, bularning har biri ming yillardan beri yuzlab xalqlarning ijodida har taraflama ishlangan. Shu ma'noda insonshunoslik bo'lmish badiiy adabiyot ayol ruhiyatini o'rganish ilmi hamdir.

Ayol obrazining adabiyotda mavjud bo'lishi xalq og'zaki ijodining qadimiy davrlariga borib taqaladi. Islomgacha bo'lgan davrda ham, undan so'ng ham ayol kishi masalasiga alohida e'tibor beriladi. Darhaqiqat, islomgacha bo'lgan davrda ayollar, pari kampirlar obrazi mavjud bo'lsa, Islom dini jamiyatida esa eng katta hurmatga loyiq zot bu ona hisoblanadi.

Bundan ko'rinadiki, ayol masalasi hech bir davrda quyi o'ringa tushgan emas, doim bosh masala hisoblangan.

Ayollar obrazlari vaqtlar o'tishi bilan zamonlar o'zgarib xarakter-xususiyatlari taraqqiy etib bordi. Endi o'zbek adabiyotida yaratilgan asarlarda ayol obrazi o'zining ko'plab qirralarini namoyon qila boshladi. Asarlarda ayollarning nasihat, xulosa qilish hissadan hissa chiqarish jarayonidan ko'ra bevosita jamiyatdagi o'rni, faol kurashi, ijtimoiy hayotning yorqin namoyondasi sifatidagi badiiy talqiniga kengroq o'rin bera boshladi. Hozirgi davr asarlarida ayollar jadal o'zgarib borayotgani ijtimoiy turmushning ishtirokchisi sifatida jamiyatdagi adolat oilaviy baxt uchun kurashchi shaxs sifatida talqin etilib bormoqda.

Hozirgi tahlil qiladigan asarimiz ham garchi otaga bag'ishlab yozilgan asar bo'lsa ham biz undagi ayollarga to'xtalib o'tmoqchimiz.



Ho'sh "Ota" romanida ayollar qanday talqin qilingan? Ularni harakteri qanchalik ochib berilgan? Ayollarga e'tibori bormi o'zi "Ota" asarida onalarni roli qanchalik ko'rsatib berilgan.

O'zining "Muvozanat", "Sabo va Samandar", "Isyon va itoat" kabi romanlari bilan bugungi o'zbek adabiyotida muhim o'rin tutgan Ulug'bek Hamdamning "Ota" romani ifoda yo'sinining, sujet tuzilishining turlicha ekani bilan ajralib turadi. Biz asardagi ayollarga to'xtalsak ya'ni Oychechak opa, Yog'du, Sevinchga alohida e'tiborimizni qaratsak.

Asar Oychechak opaning yakkayu-yagona o'g'li Po'latni farzandsizligiga davo topishdan boshlanadi. Oychechak opaning xarakterini muallif tilidan aytadigan bo'lsak "hech kimga gap bermagach bir qop yong'oqdek aldir-shaldir ayol edi. [2:108].

Oychechak opa yagona zurriyotini farzandsiz o'tib ketayotganidan, avlodi davom etmayotganidan tashvishlanib har xil folbinlar azoyimxonlarga qatnaydi. Asarda Oychechak opa obrazi bid'atlarga ishonuvchan ayol sifatida tasvirlangan. O'g'li Po'lat farzandlik bo'lganda ana shu azoyimxonlarga qatnaganini erinmay hammaga gapirib beradi. Qarangki natijasini shulardan deb o'ylaydi. Opa folbin, dam soluvchilarga shunday qatnayverib ularning oldiga nimalar olib borish kerakligini ham bilib olgan. Buni nevarasi Sevinch yo'qolib qolganda uning ko'yligidan olib folbin oldiga borganini misol qilishimiz mumkin. Oychechak opa ularga ixlosi balandligidan nabirasini topib berishsa ularni oyoqlarini ostiga xo'kiz so'yishgacha boradi. "Nima qilsa ham onada" buvida u bolalarini balo-qazolardan darddan yiroq bo'lishini istaydi.

Taqdiri azal shundayki bandasi ming yugurgani bilan uning aytgani bo'ladi. Oychechak opaning uyi yonib nabirasini yuzi kuyganidan keyin shu nabirasi bilan ularni ham yuzlaridagi kulgusi ham kuydi. Oldingidek aldir-shaldir Oychechak opadan darak ham qolmadi. Yillar o'tib opadan oldin umr yo'ldoshi uni tashlab boqiy dunyoga ketdi. Oychechak opa eridan keyin butunlay cho'kdi. Ketma-ket tobi qochib ko'rpa-to'shak qilib yotib oladigan odat chiqardi. Ona ham shunday qilib ota oldiga boqiy dunyoga yo'l oldi.

Endi bizni asardagi keyingi qahramonimiz Yog'du Po'latning Yog'dusi musichadek beozor tog'dek yukni yelkasiga olib, indamaydigan og'unu bol kabi ichiga yutib yuradigan [2:21] ayol.

U yana shunday umr yo'ldoshki qamoqda urushda yurgan eriga zarracha xiyonat qilmadi. 15 yil farzandga zor bo'lib yurishganda ham sassis yig'ladi ovoz chiqarmadi va nihoyat qorong'u kunlarni yorug'i kelib Yog'duyimiz onalik baxtiga erishdi. U shunday ona bo'ldiki hatto ishga (maktabga) borishni ham hohlamas edi.

Yog'dudan hozirgi ko'plab ayollar o'rnak olsa arziydi. Biz qayerga shoshyapmiz, nimadan quruq qolyapmiz, nima yetmayapti bizga. Bolamizni tashlab ishga shoshamiz. Vaholanki, ishdan uyga qaytib ham bolamizga emas o'sha ishdagi odamlarga, hujjatlarga sarflayapmiz vaqtimizni. Yog'du ona bo'ldi qiziga qattiq gapirib yo'lga soladigan emas yaxshi gapiradigan, qiziga dugona bo'lib u bilan dardlashadigan ona bo'ldi.



Po'latni hayotini yoritgan Yog'du edi, urushda ham Yog'du uchun tirik qolishga harakat qildi. Yog'du yo'q bo'lsa Po'latni hayotida nur yorishmadi. Buni Po'lat Yog'du uyiga ketganida juda yaxshi tushunib yetdi. "Oyi bo'lmagan – oysiz qolgan kunlar Yog'dusiz kunlar – yog'dusiz!..." [2:66].

Endi asarimizda hammani kuttirgan Sevinchga yuzlansak. Oychechak opani, Yog'duni sevinchi ha, inson taqdiri ho'p ajab yaratilgan. Mana oxiri hamma "Sevinchga" yetdi. Asarning sevinchi shunday yaratildiki farzandsiz o'tgan yillarni eslaridan chiqartirildi. Sevinch nima desa, nima istasa, hammasini muhayyo qilishdi.

Ota-onasi yo, bobo-buvisi hammasini taxt qilishdi. Dunyoning borliq yaxshiliklari Sevinchning oyoqlari ostiga to'kildi. "O'ris ertaklardagi zolushkaga aylandi qoldi" [2:86].

Bu ta'riflardan keyin ko'pchilikning hayolida Sevinch erka degan hayol o'tishi tabiiy. Asarni o'qir ekanmiz Sevinchning taqdiri ohirigacha shunday sevinch bilan o'tadimikin deb o'ylab-o'ylab o'qiyimiz. O'sha kun, o'sha mashum voqeadan keyin Sevinchni yuzidan sevinch ketdi. Nafaqat uni butun oilasini sevinch tark etdi. Endi Sevinchni oldida ota-onasiyu bobo-momosi qoldi xolos. Bog'chada ham maktabda ham va hatto oliy o'quv yurtida ham uni boshqa yaqini bo'lmadi. U bilan do'st-dugona bo'lishni hech kim hohlamadi.

" – Ota, meni sizdan boshqa o'rtog'im bo'lmaydimi? [2:97] asardan olingan ushbu misoldan ham Sevinchni ahvoli qay darajadiligini bilishimiz mumkin.

Asarni o'qib ketayotgan kitobxon shu yerda biroz to'xtab savol berishi mumkin "Endi nima bo'ladi?", "Oychechak opani, Po'latni avlodlari shu yerda tugaydimi?", "Sevinch shu yuzi bilan turmushga chiqa oladimi? Bunday savollar og'ushida asarni yanada qiziqib o'qiydi Sevinch ha u avlodni davom ettirdi farzandlik bo'ldi. Lekin u nikohsiz farzand edi. Qarangki voqealar rivoji ya'ni kulminatsiyasini ko'rinki o'sha Sevinch ha ha o'sha Po'latning, otaning sevinchi o'ldi.

Sevinch ota-onasini yuziga oyoq qo'yib nikohsiz farzandli bo'lib to'g'ri ish qildim. Avlodini davom ettirish uchun bu to'g'ri yo'lmi? Ha kimlardur aytadi ham ayol u ham baxtli bo'lishni hohlaydi. Yuzi cho'tir bo'lgani bois hamma qizlar qatori turmush quolmadi, lekin uni ham farzandli bo'lishga haqqi bor. Ya'ni kimlardur otani tarafini oladi yaxshi ish qilgan qolganlarga ham o'rnak bo'ladi.

Muallif romanda ismlarga ham alohida e'tibor bergan. Ism qo'yishda ham qahramonlar harakterini belgilab ko'rsatgan. Masalan, O'tkir aka o'tkir edi. Aytganini qiladigan obraz edi. Po'lat irodasi ham ismiddek po'lat. Bu Po'lat nimalarga chidadi?, nimalarni ko'rди? Barcha sinovlarga "Po'latdek" dosh berdi.

Yog'du Po'lat otaning nafaqat uni oilaning yog'dusi, nuri o'ldi. Sevinch Oychechak opayu Po'lat Yog'dularning sevinchi, quvonch olib keldi. Sevinchlarga yetaylik deyishdi. Qolaversa bu oilada turkona ism qo'yilardi. "... bir tomonimiz arabiyu boshqa tomonimiz forsiy ismlar bo'lib ketgan. Hatto ular juda-juda ko'p o'rtada muvozanatni saqlash uchun, otlarimiz aytilganda qaysi millatga tegishli ekanimiz bilinib tursin" [2:50].



O'tkir aka tilida aytilgan bu gapga muallif bugungi kundagi farzandlarga ism qo'yishdagi og'riqli nuqtalarimizni aytib o'tmoqda.

Abu Dardo roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: Rasulullohu alayhi vassallam dedilar: "Albatta, qiyomat kuni o'z ismlaringiz va otalaringizni ismi ila chaqirilursiz. Bas", ismlaringizni go'zal qiling", Abu Dovud, Ibn Hibbon, Toboroni va Bayhaqiy rivoyat qilishgan [3:21].

Umuman olganda, o'zbek adabiyotida ayol obrazi har bir davr o'z manzarasini, ehtiyoji, sharoitidan kelib chiqib badiiy obraz yaratdi. Ularning orasidan komillik darajasiga chiqqanlari ham, bir o'qishda unitilib ketganlari ham mavjud.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, Ulug'bek Hamdamning ushbu asarini bugungi davrning katta-yu kichik har bir insoni o'qishi kerak. Bugun otasini behurmat qilayotgan, qizining nomusini o'ziniki deb bilmagan odamlar afsuski oramizda uchrab turadi. Ayni shular kabi bo'lmaslik uchun ham romanni o'qib chiqish bugungi kunning zaruriyatlaridan biriga aylandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ulug'bek Hamdam "Ota" romani – T.: 2020. "YAngi asr avlodi". – 208 b. // www.ziyo.com kutubxonasi.
2. Isomiddinov Z. Ikki ayol.//Tafakkur, 2007, 4-son/47-bet
3. www.ziyo.com. kutubxonasi.

